

Better Cotton P&C V3.0 – Jamoatchilik bilan maslahatlashuv matni loyihasi

Mundarija

Better Cotton P&C V3.0 – Jamoatchilik bilan maslahatlashuv matni loyihasi 1

Mazkur loyiha va P&C tahriri haqida Error! Bookmark not defined.

1-tamoyil: Boshqaruv 1

- 1.1-MEZON - Ishlab chiqaruvchi o'z faoliyatini ma'lumotli, samarali va inklyuziv tarzda amalga oshiradi va boshqaradi. 6
- 1.2-MEZON - Ishlab chiqaruvchi qaror qabul qilish jarayonini mustahkamlash uchun ma'lumotlarni boshqarish bo'yicha samarali va aloqador tizimdan foydalanadi. 6
- 1.3-MEZON - Ishlab chiqaruvchi mahalliy ahamiyatga ega hududlarda Doimiy takomillashtirish tizimiga ustuvor ahamiyat beradi. 7
- 1.4-MEZON – Ishlab chiqaruvchi salohiyatni oshirish bo'yicha barcha xodimlar, fermerlar va ishchilar uchun samarali, mahalliy sharoitga aloqador va ehtiyojga asoslangan yondashuvni qo'llaydi. 7
- 1.5-MEZON – Ishlab chiqaruvchi ayollarning ko'proq ishtirok etishini va e'tirof etilishini qo'llab-quvvatlaydi. 8
- 1.6-MEZON - Ishlab chiqaruvchi mahalliy sharoitga aloqador barqarorlik masalalarini hal qilish uchun hamkorlikda qadamlar qo'yadi. 8
- 1.7-MEZON - Ishlab chiqaruvchi shoshilinch chora-tadbirlar zarurligini hisobga oladi hamda iqlim o'zgarishini kamaytirish va moslashish choralarini amalga oshiradi. 8

2-tamoyil: Tabiiy resurslar 9

- 2.1-MEZON - Fermerlar tabiiy resurslarning qadrini va ularni qanday asrashni biladilar. 9
- 2.2-MEZON - Tuproqning fizik, kimyoviy va biologik xususiyatlarini asraydigan va mustahkamlaydigan dehqonchilik amaliyotlari orqali tuproq salomatligi yaxshilanadi. 9
- 2.3-MEZON - Suv sifati va mavjudligi hosilni himoya qilishni kuchaytiradigan hamda chiqindilar, eroziya va sho'rlanishni kamaytiradigan amaliyotlar orqali optimallashtiriladi. 10
- 2.4-MEZON - Fermer xo'jaligi va uning atrofidagi biologik xilma-xillik va tabiiy yashash joylari muhofaza qilinadi va yaxshilanadi. 10
- 2.5-MEZON - Tabiiy ekotizimlar va HCVlar himoyalangan, asralgan va mustahkamlangan. 10

3-tamoyil: Hosilni himoya qilish

11

- 3.1-MEZON - Ishlab chiqaruvchi Zararkunandalarga qarshi integratsiyalashgan boshqaruvning Ishlab chiqaruvchi boshqaruvi va amaliyotlarining ajralmas qismi ekanligini ta'minlaydi. 11
- 3.2-MEZON - Ishlatilgan pestitsidlar tegishli tarzda qayd etiladi va tegishli ravishda belgi qo'yiladi. 12
- 3.3-MEZON - Ishlab chiqaruvchi Juda xavfli pestitsidlardan foydalanishni minimallashtirishni zimmasiga oladi. 12
- 3.4-MEZON - Juda xavfli pestitsidlarning ekologik xavfi baholanadi va kamaytiriladi. 13
- 3.5-MEZON - Pestitsidlar xavfsiz tarzda qo'llaniladi va saqlanadi. 13

4-tamoyil: O'g'it sifati

Error! Bookmark not defined.

- 4.1-MEZON - Fermerlik amaliyotlari (hosildan oldin, keyin va hosil paytida) o'g'it sifatini saqlab qolish va mustahkamlashni ta'minlaydi. 15

5-tamoyil: Insonga munosib ish

Error! Bookmark not defined.

- 5.1-MEZON - Ishlab chiqaruvchida ishchilar huquqlarining buzilishi xavfi hamda hodisalarni aniqlash va ularga qarshi kurashishning samarali tizimi mavjud. 16
- 5.2-MEZON - Fermerlar va ishchilar o'z mehnat huquqlaridan xabardor. 16
- 5.3-MEZON - Bolalar va yosh ishchilarning huquqlari himoya qilinadi. 16
- 5.4-MEZON - Majburiy mehnat, jumladan, qarz majburiyatlari ostida ishlatish yoki odam savdosi mavjud emas. 17
- 5.5-MEZON - Ishchilar uyushish va mehnat muzokaralari o'tkazish huquqiga ega. 17
- 5.6-MEZON - Ishchilarni yollash yoki ularga munosabatda bo'lishda hech qanday kamsitish yo'q. 18
- 5.7-MEZON - Ishchilarga kamida eng kam ish haqi miqdorida haq to'lanadi. 18
- 5.8-MEZON - Ishchilarning salomatligi va xavfsizligi himoyalangan. 18
- 5.9-MEZON - Ishchilar o'z tashvishlarini ishonch bilan aytishlari va mehnat qonunbuzarliklari qurbonlari zarur choralardan foydalana olishlari mumkin. 19
- 5.10-MEZON - Ishchilar aniq shartnomalar va kutilmalarga ega. 19

6-tamoyil: Tirikchilik manbalari

Error! Bookmark not defined.

- 6.1-MEZON - Fermerlarning asosiy tirikchilik masalalari va ularni hal etish imkoniyatlari aniqlanib, amalga oshirilmoqda. 20
- 6.2-MEZON - Tashkil etish va birgalikdagi harakatlar orqali ijtimoiy va iqtisodiy foydalarni ko'paytirish. 20

Mazkur loyiha va P&C tahriri haqida

Ushbu hujjat 2022-yil avgust va sentyabr oylarida jamoatchilik muhokamasi uchun chiqarilgan, qayta ko'rib chiqilgan P&C loyihasi matnidir. P&C tahriri jarayonining bir qismi sifatida va tegishli manfaatdor tomonlar guruhlar bilan bir qator dastlabki maslahatlashuvlar asosida ishlab chiqilgan. Loyihaga jamoatchilik bilan maslahatlashuvdan kelib chiqqan holda qo'shimcha o'zgartirishlar kiritiladi. P&C 3.0 versiyasi 2023-yilning birinchi yarmida tatbiq etilishi va o'tish yilidan so'ng 2024-25 yilgi mavsumdan boshlab to'liq amal qilishi kutilmoqda. Tahrirning mantiqiy asoslari, jarayoni va boshqarilishi haqida qo'shimcha ma'lumot olish uchun qarang: <https://bettercotton.org/better-cotton-principles-and-criteria-revision/>

P&C Tavsiya etilgan tahrirlangan P&C haqida umumiy fikrlar

P&C Better Cotton 2030 strategiyasiga qanday bog'lanadi?

2030 strategiyasi paxtaning atrof-muhit uchun, uni yetishtiruvchi fermerlar va soha kelajagiga hissa qo'shgan barcha uchun yaxshiroq bo'lishiga qaratilgan o'n yillik rejamizning yo'nalishini belgilab bergan. P&C barcha ishlab chiqaruvchilarning "Better Cotton" sotuvchisi bo'lish uchun litsenziya olishlari uchun bajarishlari kerak bo'lgan global talablarni belgilaydi. Tahrirlangan P&C litsenziyalash talablari fermerlarning sa'y-harakatlarini dala darajasidagi aniq barqarorlikni yaxshilashga olib keladigan sohalarga yo'naltirishini ta'minlashga yordam beradi. Shu sababli tahrirlangan P&C Better Cottonning 2030 strategiyasi hamda tegishli maqsad va vazifalariga erishish uchun asosiy omil hisoblanadi.

Ijtimoiy inklyuziyaga sodiqlik

Umuman P&Cda hamda har safar fermerlar yoki ishchilar tilga olinganida, bu gender identikligi, gender xususiyatlari, jinsiy orientatsiyasi, yoshi, millati, etnik kelib chiqishi, tili, irqi, sinfi, tabaqasi, ijtimoiy kelib chiqishi, dini, e'tiqodi, sog'lig'i, siyosiy qarashlari, oilaviy ahvoli yoki boshqa har qanday holatdan qat'iy nazar, barcha qatlamdagi shaxslarni o'z ichiga oladi. Better Cotton ishlab chiqaruvchilari barcha zaif guruhlarning ishtiroki va qamrab olinishiga alohida e'tibor berishlari kutiladi.

Tahrirlangan P&C da gender

Better Cotton 2030 strategiyasiga erishishda gender tengligi va ayollarning nafaqat ishlab chiqaruvchi, balki yetakchilik rollarida ham bo'lishi hamda qaror qabul qilish jarayonlarida to'liq ishtirok etishi muhimligini biladi. Better Cotton Standard tizimining boshqa qismlari bilan birga tatbiq etiladigan P&C barcha tamoyillarga gender omilini ko'proq kiritishga intilib, gender bilan bog'liq 2030-yilga mo'ljallangan maqsadga hissa qo'shadi. Boshqaruv tamoyillariga qo'shilgan alohida mezon ishlab chiqaruvchi tomonidan amalga oshiriladigan barcha faoliyatlarning bir qismi sifatida gender ishtiroki va qamrovining hisobga olinishini ta'minlashga qaratilgan. Shuningdek, gender bilan bog'liq muammolarni aniqlash va monitoring qilish hamda ularni hal etish uchun mahalliy darajada tegishli choralar ko'rishni talab qiladi. Ma'lumotlar yig'ish talablarining bir qismi sifatida P&C, shuningdek, saralangan ma'lumotlarni to'plashni va barcha uy xo'jaliklari a'zolarini Better Cotton ishtirokchilari sifatida ro'yxatdan o'tkazishni talab qiladi.

Tahrirlangan P&C da iqlim o'zgarishlari

Better Cotton qishloq xo'jaligida iqlim o'zgarishi muammolarini hal etishning dolzarbligini e'tirof etadi. Tahrirlangan P&C Boshqaruv tamoyiliga iqlim borasida harakatlar bo'yicha maxsus Mezonni qo'shib, barcha fermerlar o'zlarining barcha faoliyatlarida iqlim o'zgarishi ta'sirini tushunishlari, e'tibor qaratishlari va hal qilishlariga qaratilgan. Iqlim o'zgarishiga moslashish va salbiy ta'sirlarni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar barcha Tamoyillarda hisobga olingan hamda tegishli ko'rsatkichlar ilovada alohida jadvalda keltirilgan.

P&C negizidagi doimiy takomillashtirish tizimi

Doimiy takomillashtirish Better Cottonning asosiy ustuvorliklaridan biridir. "Asosiy" va "takomillashtirish" ko'rsatkichlari bilan ishlagan oldingi yondashuv bilan bog'liq qiyinchiliklarni hisobga olgan holda tahrirlangan P&C doimiy takomillashtirishni kuchaytirish uchun yondashuvni quyidagicha o'zgartirishni taklif qiladi.

- Birinchidan, takomillashtirish yo'llari asosiy ko'rsatkichlarga kiritilgan. Tahrirlangan P&C da taklif qilingan barcha ko'rsatkichlar hozirda "asosiy" deb hisoblansa-da va shuning uchun litsenziyalash bilan bog'liq bo'lsa-da, ko'plab ko'rsatkichlar "vaqt o'tishi bilan takomillashtirish choralari ko'rilmogda..." kabi so'zlarni o'z ichiga oladi. Bu amalga oshirish muammolarini hal qilishni ta'minlabgina qolmay, balki turli Ishlab chiqaruvchilar turli boshlang'ich nuqtalardan boshlashlarini, shu bilan birga barcha Ishlab chiqaruvchilardan asosiy maqsad sari doimiy ishlashlarini talab qilishini ham e'tirof etadi.
- Ikkinchidan, Ishlab chiqaruvchilar Boshqaruv tamoyilining bir qismi sifatida ular uchun aloqador va dolzarb bo'lgan doimiy takomillashtirishga qaratilgan barqarorlik ustuvorliklarini belgilashlari va ushbu maqsadlarga erishish uchun choralar ko'rishlari kutilmogda. Doimiy takomillashtirish uchun ustuvor yo'nalishlarni aniqlash va ularga erishish bo'yicha qadamlarning amalda amalga oshirilishi P&C ga muvofiqlik va tegishlilik nuqtai nazaridan baholanadi. Tegishli doimiy takomillashtirish ustuvorliklarini qanday aniqlash bo'yicha ko'rsatmalar beriladi.

Qamrov va qo'llash mumkinligi

P&C Better Cotton uchun litsenziyaga ega bo'lish uchun fermer xo'jaliklari darajasida bajarilishi kerak bo'lgan talablarni belgilaydi.

Talablar global miqyosda qo'llanilishi uchun yetarli darajada keng bo'ladi, turli paxta yetishtiruvchi hududlar o'rtasidagi sezilarli farqlarni bartaraf etish uchun bu talablarga mahalliy qo'llanma qo'shiladi. Better Cotton, shuningdek, fermer xo'jaliklari ishlatadigan ishlab chiqarish usullari va ish yuritishdagi farqlarni e'tirof etish uchun fermer xo'jaliklarining uchta kattalik toifasini ajratishda davom etmogda (quyida qarang).

Litsenziyalash ko'lamini fermer xo'jaligi yoki Ishlab chiqaruvchi bo'linmasi ichidagi paxta yetishtirish maydonlariga tegishlidir. Biroq ko'plab talablar (yoki tegishli qo'llanma) fermerlik amaliyotlarida kengroq qo'llanilmogda va Ishlab chiqaruvchilar ularni boshqa munosib mahsulotlarda ham e'tiborga olishlari tavsiya etiladi. Zarur bo'lganda, amalga oshirish bo'yicha qo'llanma va kafolat hujjatlari buni ko'rsatkich darajasida aniqlab beradi.

Better Cotton P&C ga rioya etilishini ta'minlash uchun umumiy javobgarlik litsenziya egasi hisoblanuvchi tashkilot/tashkilotlar zimmasida va bu tashkilotlar "Ishlab chiqaruvchi" deb nomlanadi. Bir nechta kichik yoki o'rta fermer xo'jaliklarini yagona litsenziyalash bo'linmasida birlashtirgan Ishlab chiqaruvchi bo'linmalari uchun individual ko'rsatkichlarning qo'llanilishi uchun javobgarlik P&C ga qarab farq qiladi: ayrim hollarda javobgarlik Ishlab chiqaruvchi bo'linmasining boshqaruv xodimlariga, boshqa hollarda esa yakka tartibdagi fermerlarga yuklanadi. Jadvalning ikkinchi qatoridagi "mas'uliyat darajasi" ko'rsatkichi ushbu holatni aniqlashtirishga qaratilgan.

Hujjatni qanday o'qish haqida

Tamoyillari, mezonlar va ko'ratkichlar

Tahrirlangan Better Cotton fermer xo'jaligi standarti Tamoyillar, mezonlar va ko'rsatkichlar bilan ishlashda davom etmogda. Tamoyillar qamrovli barqarorlik sohalari bo'lib, Mezonlar tamoyil doirasidagi kichik shartlardir, Ko'rsatkichlar esa har bir mezon doirasida bajarilishi kerak bo'lgan fermer xo'jaligi darajasidagi haqiqiy talablardir.

Fermer xo'jaligi toifalari

Har bir ko'rsatkichning yuqori o'ng burchagida tegishli ko'rsatkich qaysi fermer xo'jaligi toifasi/turi uchun amal qilishi aniq ko'rsatilgan.

- Kichik fermer xo'jaliklari (SH): tuzilmaviy jihatdan doimiy ravishda yollanma ishchi kuchiga qaram bo'lmagan va fermer xo'jaligining kattaligi 20 gektar ekilgan paxta maydonidan oshmaydigan fermerlar.
- O'rta fermer xo'jaliklari (MF): tuzilmaviy jihatdan doimiy yollanma ishchi kuchiga qaram bo'lgan va fermer xo'jaligining kattaligi 20 gektardan 200 gektargacha bo'lgan ekilgan paxta maydonlari bo'lgan fermerlar.
- Yirik fermer xo'jaliklari (YF): fermer xo'jaligi 200 gektardan ortiq paxta maydoniga ega bo'lgan va qishloq xo'jaligi texnikasi yordamida mahsulot yetishtiruvchi yoki tuzilmaviy jihatdan doimiy yollanma ishchi kuchiga qaram bo'lgan fermerlar.

Ishlab chiqaruvchining tavsifi

Ishlab chiqaruvchi litsenziyalash bo'linmasini ifodalaydi va kichik yoki o'rta fermer xo'jaliklari uchun Ishlab chiqaruvchi bo'linmasi (PU) yoki yirik fermer xo'jaliklarida individual fermer bo'lishi mumkin. Qachonki P&C da "fermer" tilga olinsa, bu haqiqiy yakka tartibdagi fermerni bildiradi.

Mas'uliyat darajasi

Ikkinchi qatordagi ushbu ko'rsatkich yakka tartibdagi fermerlar yoki Ishlab chiqaruvchi boshqaruvining ayniqsa Ishlab chiqaruvchi bo'linmalari uchun ftegishli ko'rsatkichning qo'llanishi bo'yicha javobgarligini belgilaydi.

Maqsad va izohlovchi eslatmalar

Ikkinchi qatordagi maqsad ko'rsatkichning mantiqiy asosini va umumiy maqsadini tushuntiradi. Izohlovchi eslatmalar ko'rsatkichning yaxshiroq tushunilishi va baholanishi uchun zarur bo'lgan amaliyotlar, qo'shimcha ta'riflar yoki shunga o'xshash tushuntirishlar haqida qo'shimcha ma'lumot beradi. Maqsad ham, izohlovchi eslatmalar ham jamoatchilik bilan maslahatlashuvdan keyin shakllantiriladi.

Mavjud P&C 2.1 versiyasida amalga oshirilgan o'zgarishlar

Ikkinchi ustunda ayni paytda amalda bo'lgan P&C 2.1 versiyasidagi o'zgarishlar darajasi ko'rsatilgan. Ushbu ma'lumot faqat maslahatlashish maqsadida kiritilgan va P&C 3.0 versiyasining yakuniy versiyasiga kiritilmaydi.

- **O'zgarish yo'q:** bir xil yoki faqat biroz o'zgartirilgan so'zlar bilan birga ko'rsatkichning ma'nosi bir xil;
- **Kichik o'zgarish** ma'nodagi kichik o'zgarishlar yoki uning qo'llashga ozgina ta'siri bor, masalan, bir nechta mavjud ko'rsatkichlarni bitta ko'rsatkichga birlashtirish; qo'llash uchun belgilangan muddatlar va boshqalar kabi;
- **Katta o'zgarish:** bir xil mavzular, lekin diqqat markazida sezilarli o'zgarish yoki qo'llashga sezilarli ta'sirlar bor (masalan, yangi elementlarni olib tashlash yoki qo'shish);
- **Yangi – asosiyini takomillashtirish:** takomillashtirish ko'rsatkichi (sozlangan) va asosiy holatiga keltirilgan;
- **Yangi:** yangi mavzu yoki ko'rsatkichga joy ajratilgan.

Qo'llash va kafolat materiallari bo'yicha qo'llanma

Qo'llash bo'yicha global va kuchli mahalliy qo'llanma qo'shimcha ma'lumotlar, yaxshi amaliyotlar va kerak bo'lganda muvofiqlik bo'yicha ko'rsatmalarni o'z ichiga oladigan tahrirlangan P&C bilan birga bo'ladi. Kafolat materiallari va qo'llanmalar ham shunga mos ravishda sozlanadi.

1-tamoyil: Boshqaruv

1.1-MEZON - Ishlab chiqaruvchi o'z faoliyatini ma'lumotli, samarali va inklyuziv tarzda amalga oshiradi va boshqaradi.

1.1.1

[KFX- O'FX] Ishlab chiqaruvchi bo'linmasi uchun aniq va mahalliy ahamiyatga ega harakatlar rejasi ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi:

- (i) Barcha rejalashtirilgan faoliyatlar, muddatlar va majburiyatlarni o'z ichiga oladi;
- (ii) Mavsum davomida muntazam ravishda yangilanadi;
- (iii) Monitoring faoliyati natijalarini hisobga olgan holda yiliga kamida bir marta ko'rib chiqiladi.

1.1.2

[KFX- O'FX] Yuksalishni o'lchash va Ishlab chiqaruvchi bo'linmasi faoliyati samaradorligini tushunish uchun monitoring rejasi ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi. Monitoring rejasining xususiyatlari quyida keltirilgan:

- (i) Ishtirokning birinchi yilidagi (ta'sis yili) bazaviy baholashni va har bir litsenziyalash davri oldidan ushbu bazaviy ko'rsatkichga nisbatan qayta baholashni o'z ichiga oladi;
- (ii) Nomuvofiqlik xatarlarini aniqlanadi, kafolat beriladi, fermer xo'jaligi darajasidagi ma'lumotlar tahlil qilinadi, olingan ma'lumotlar hujjatlashtiriladi va 1.1.1 dagi harakatlar rejasiga kiritiladi.

1.1.3

[KFX - O'FX] Yiliga kamida bir marta erkak va ayol fermerlar hamda ishchilardan iborat vakillik va inklyuziv namunasining ustuvorliklari va ehtiyojlari bo'yicha maslahatlashiladi. Ushbu maslahatlashuvning asosiy xulosalari hujjatlashtirilgan hamda harakatlar va monitoring rejalarida hamda davomiy takomillashtirish maqsadlari uchun ustuvorliklarni belgilashda hisobga olinadi.

1.1.4

[KATFX] Qishloq xo'jaligi faoliyatini rejalashtirish va amalga oshirish uchun samarali boshqaruv tizimi mavjud. Tizim Better Cotton talablari va 1.3-mezonida ko'rsatilganidek, doimiy takomillashtirish maqsadlariga nisbatan erishilgan yutuqlarni kuzatish imkonini beradi.

1.1.5

[KFX - O'FX - KATFX] Ishlab chiqaruvchi amaldagi barcha qonun va qoidalarga amal qiladi.

1.2-MEZON – Ishlab chiqaruvchi qaror qabul qilish jarayonini mustahkamlash uchun ma'lumotlarni boshqarish bo'yicha samarali va aloqador tizimdan foydalanadi.

1.2.1

[KFX - O'FX - KATFX] Ishlab chiqaruvchi darajasidagi aniq va to'liq ma'lumotlar "Better Cotton fermer xo'jaligi ma'lumotlariga qo'yiladigan talablar" hujjatida ko'rsatilganidek to'planadi, tekshiriladi va hisobot qilinadi.

1.2.2

[SH - MF] Fermerlar "Better Cotton fermer xo'jaligi ma'lumotlariga qo'yiladigan talablar" hujjatiga muvofiq kiritilgan ma'lumotlar, natijalar va asosiy amaliyotlarni o'z ichiga olgan aniq hisoblarni yuritadilar.

1.3-MEZON - Ishlab chiqaruvchi mahalliy ahamiyatga ega hududlarda Doimiy takomillashtirish tizimiga ustuvor ahamiyat beradi.

1.3.1

[KFX - O'FX (ikkinchi litsenziyalash siklidan boshlab ICHBlarga nisbatan qo'llaniladi)] Doimiy takomillashtirishning aniq yo'nalishlari hamda tegishli 3 yillik maqsadlar va tadbirlar aniqlanadi. Doimiy takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari "Doimiy takomillashtirish uchun Better Cotton yo'riqnomasi"ga asoslanadi va quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

- (i) mahalliy ahamiyatga ega ustuvor sohalarni ko'rib chiqish;
- (ii) monitoring va ma'lumotlarni boshqarishda paydo bo'ladigan ustuvorliklar (1.1 va 1.2-mezonlar);
- (iii) fermer xo'jaliklarining ustuvorliklari va ehtiyojlari.

1.3.2

[KFX - O'FX (ikkinchi litsenziyalash siklidan boshlab ICHBlarga nisbatan qo'llaniladi)] Belgilangan doimiy takomillashtirish yo'nalishlari hamda tegishli maqsadlar va tadbirlar 1.1.1 va 1.1.2 dagi harakatlar va monitoring rejalariga to'liq kiritilgan.

1.3.3

[KATFX] Doimiy takomillashtirishga yo'naltirilishi kerak bo'lgan aniq va mahalliy ahamiyatga ega barqarorlik maqsadlari aniqlangan. Ushbu maqsadlarga erishish bo'yicha tadbirlar 1.1.4-ko'rsatkichda umumiy boshqaruv tizimining bir qismi sifatida amalga oshiriladi va borishi nazorat qilinadi.

1.4-MEZON - Ishlab chiqaruvchi salohiyatni oshirish bo'yicha barcha xodimlar, fermerlar va ishchilar uchun samarali, mahalliy sharoitga aloqador va ehtiyojga asoslangan yondashuvni qo'llaydi.

1.4.1

[KFX- O'FX - KATFX (faqat 15 dan ortiq ishchiga ega KATFX uchun)] Ayol va erkak fermerlar va ishchilarning salohiyatini mustahkamlash uchun quyidagilarni ta'minlaydigan samarali dastur amalga oshirilmoqda:

- (i) mahalliy ahamiyatga ega amaliyot va innovatsiyalarga e'tibor qaratish;
- (ii) erkak va ayol fermerlar va ishchilar bilan maslahatlashilib, oldingi treninglar bo'yicha fikr-mulohazalar orqali xabardor qilinadilar;
- (iii) samarali va mahalliy sharoitga moslashtirilgan vositalar va usullardan foydalanadi.

1.4.2

[KFX- O'FX - KATFX (faqat 15 dan ortiq ishchiga ega KATFX uchun)] Imkoniyatlarni oshirish bo'yicha faoliyatlar foydalanadigan barcha fermerlar va ishchilar qamrovli va teng shaklda ishlab chiqilgan.

1.4.3

[KFX- O'FX - KATFX (faqat 15 dan ortiq ishchiga ega KATFX uchun)] Fermerlar va ishchilar o'qitish yoki boshqa salohiyatni oshirish tadbirlari orqali ilgari suriladigan asosiy masalalar va amaliyotlarning ahamiyati va

afzalliklarini tushunadilar.

1.4.4

[KFX - O'FX] Ishlab chiqaruvchi xodimlar/trenerlar samarali va tegishli salohiyatni oshirish faoliyatlarini amalga oshirish uchun zarur texnik bilim va funksional ko'nikmalarga ega.

Ish faoliyatini baholash va keyingi rivojlanishni qo'llab-quvvatlash uchun tizim mavjud.

1.4.5

[KATFX] Ishlab chiqaruvchi boshqaruvi/fermer mahalliy barqarorlik muammolarini tushunadi va bu muammolarni yaxshiroq hal qilish uchun maslahat va ma'lumot so'raydi.

1.5-MEZON - Ishlab chiqaruvchi ayollarning ko'proq ishtirok etishini va e'tirof etilishini qo'llab-quvvatlaydi.

1.5.1

[KFX - O'FX - KATFX (faqat 10 dan ortiq ayol ishchilari bo'lganlar uchun)] Ayollarning ko'proq ishtirok etishi va e'tirof etilishini rag'batlantirish uchun bir shaxs yoki bir guruh shaxslar (shuningdek, "gender yetakchiligi" deb ham ataladi) tayinlanadi. Asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- (i) mahalliy gender muammolari va imkoniyatlarini aniqlash uchun fermer ayollar, ishchilar va jamiyat bilan maslahatlashish;
- (ii) ma'muriyat, fermerlar va ishchilarning gender bilan bog'liq ayrim masalalar bo'yicha mahalliy darajada xabardorligini oshirish;
- (iii) takomillashtirish bo'yicha harakatlar bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;
- (iv) gender yaxshilanishi bo'yicha harakatlarni harakatlar va monitoring rejalariga integratsiya qilish uchun Ishlab chiqaruvchi boshqaruvi bilan ishlash.

1.5.2

[KFX - O'FX - KATFX (faqat 10 dan ortiq ayol ishchilari bo'lganlar uchun)] Gender yetakchisining tavsiyalaridan kelib chiqib, joylarda gender bilan bog'liq muammolarni hal etish bo'yicha ustuvor chora-tadbirlar va vazifalar amalga oshirilmoqda

1.6-MEZON - Ishlab chiqaruvchi mahalliy sharoitga aloqador barqarorlik masalalarini hal qilish uchun hamkorlikda qadamlar qo'yadi.

1.6.1

[KFX - O'FX - KATFX] Ishlab chiqaruvchi boshqa manfaatdor tomonlar bilan (ferma yoki Ishlab chiqaruvchi bo'linmasi chegaralaridan tashqari) mahalliy ahamiyatga ega barqarorlik masalalari bo'yicha o'zaro hamkorlik qiladi.

1.7-MEZON - Ishlab chiqaruvchi shoshilinch chora-tadbirlar zarurligini hisobga oladi hamda iqlim o'zgarishini kamaytirish va moslashish choralarini amalga oshiradi.

1.7.1

[KFX - O'FX - KATFX] Ishlab chiqaruvchi quyidagilardan xabardor:

- (i) mahalliy iqlim ta'sirlari va ular qishloq xo'jaligi faoliyati va turmush tarziga qanday ta'sir qilishi;
- (ii) mahalliy darajada iqlim o'zgarishiga moslashish va ularni yumshatish bo'yicha tegishli choralar.

1.7.2

[KFX - O'FX - KATFX] Mahalliy darajada iqlim o'zgarishlariga moslashish bo'yicha chora-tadbirlar faoliyat va monitoringni rejalashtirish va amalga oshirish bilan birlashtirilgan.

1.7.3

[KFX - O'FX - KATFX] Iqlim o'zgarishlarini kamaytirish bo'yicha mahalliy darajada tegishli va qo'llash mumkin bo'lgan chora- tadbirlar faoliyat va monitoringni rejalashtirish va amalga oshirish bilan birlashtirilgan.

2-tamoyil: Tabiiy resurslar

2.1-MEZON - Fermerlar tabiiy resurslarning qadrini va ularni qanday asrashni biladilar.

2.1.1

[KFX - O'FX - KATFX] Fermerlar quyidagilarni yaxshi tushunadilar:

- (i) tabiiy resurslarning (tuproq, suv va biologik xilma-xillik) o'z xo'jaliklari va jamoalari uchun ahamiyati;
- (ii) faoliyatlari tuproq salomatligi, suv va biologik xilma-xillikka qanday ta'sir qilishi va ularning bir-biri bilan qanday aloqasi borligi;
- (iii) o'z xo'jaliklarida tabiiy resurslarni asrash va yaxshilash bo'yicha amalga oshirishlari mumkin bo'lgan tadbirlar.

2.2-MEZON - Tuproqning fizik, kimyoviy va biologik xususiyatlarini asraydigan va mustahkamlaydigan dehqonchilik amaliyotlari orqali tuproq salomatligi yaxshilanadi.

2.2.1

[KFX - O'FX - KATFX] Mahsulot xilma-xilligini maksimal darajada oshiradigan mahalliy tegishli amaliyotlar amalga oshiriladi.

2.2.2

[KFX - O'FX - KATFX] Tuproq qoplamini maksimal darajada oshiradigan mahalliy qishloq xo'jaligi amaliyotlari amalga oshiriladi.

2.2.3

[KFX - O'FX - KATFX] Tuproqning buzilishini minimallashtirish uchun mahalliy qishloq xo'jaligi amaliyotlari qo'llaniladi.

2.2.4

[KFX - O'FX - KATFX] O'g'itlarni optimal qo'llash quyidagilarni e'tiborga olgan va quyidagi elementlarni tanlagan holda foydani maksimal darajada oshirish va salbiy ta'sirlarni kamaytirishni maqsad qiladi:

- (i) to'g'ri ozuqa manbai (tuproq va o'simlik ehtiyojlariga ko'ra);
- (ii) to'g'ri nisbat;
- (iii) to'g'ri vaqtni belgilash;
- (iv) to'g'ri qo'llash maydoni.

2.2.5

[KFX - O'FX - KATFX] Vaqt o'tishi bilan sintetik o'g'itlardan foydalanishni minimallashtirish choralari ko'riladi.

2.3-MEZON - Suv sifati va mavjudligi hosilni himoya qilishni kuchaytiradigan hamda chiqindilar, eroziya va sho'rlanishni kamaytiradigan amaliyotlar orqali optimallashtiriladi.

2.3.1

[KFX - O'FX - KATFX (faqat sug'oriladigan fermer xo'jaliklarida)] Sug'orish usullari, texnologiyalari va muddatlari sug'orish samaradorligini oshirish va suv samaradorligini maksimal darajada oshirish uchun rejalashtiriladi va amalga oshiriladi..

2.3.2

[KFX - O'FX - KATFX (faqat yomg'ir suvi ishlatiladigan fermalarda)] O'zgaruvchan yog'ingarchilik mavjudligi va tarqalishini samarali boshqarish bo'yicha amaliyotlar mavjud.

2.4-MEZON - Fermer xo'jaligi va uning atrofidagi biologik xilma-xillik va tabiiy yashash joylari muhofaza qilinadi va yaxshilanadi.

2.4.1

[KFX - O'FX - KATFX] Suv yo'llari va sersuv yerlarni asrash choralari (masalan, bufer zonalari, o'tloqli suv yo'llaridan foydalanish, o'g'itlar va kimyoviy moddalarni to'g'ri saqlash va ishlatish).

2.4.2

[KFX - O'FX - KATFX] Tabiiy yashash joylari va biologik xilma-xillik muhofaza qilinadi hamda vaqt o'tishi bilan ularni yaxshilash choralari ko'riladi.

2.4.3

[KFX - O'FX - KATFX] Buzilgan maydonlar aniqlanib, vaqt o'tishi bilan ularni tiklash choralari ko'riladi.

2.5-MEZON - Tabiiy ekotizimlar va HCVlar himoyalangan, asralgan va mustahkamlangan.

2.5.1

[KFX - O'FX - KATFX] Qishloq xo'jaligida bo'lmagan yerlarni qishloq xo'jaligi yerlariga aylantirish taklif qilingan taqdirda, "Better Cotton o'zgartirish xavfini baholash" amalga oshirilishi kerak. Tegishli chora-tadbirlar P1da faoliyat va monitoring faoliyatiga to'liq kiritilgan.

2.5.2

[KFX - O'FX - KATFX] Ishlab chiqaruvchi 2020-yil 1-yanvarda yoki undan keyin hech qanday tabiiy ekotizim qishloq xo'jaligiga aylantirilmasligini kafolatlaydi..

3-tamoyil: Hosilni himoya qilish

3.1-MEZON - Ishlab chiqaruvchi Zararkunandalarga qarshi integratsiyalashgan boshqaruvning Ishlab chiqaruvchi boshqaruv va amaliyotlarining ajralmas qismi ekanligini ta'minlaydi.

3.1.1

[KFX - O'FX] 3.1.2-3.1.7 ko'rsatkichlarini o'z ichiga olgan va vaqt o'tishi bilan ZIBni tushunish va amaliyotini doimiy takomillashtirish yo'lini o'z ichiga olgan zararkunandalarga qarshi integratsiyalashgan boshqaruv (ZIB) strategiyasi ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi. Strategiya P1 doirasidagi harakatlar va monitoring rejaları haqida ma'lumot beradi.

3.1.2

[KFX - O'FX] Fermerlar mahalliy zararkunandalar bosimi va ularning asosiy tabiiy dushmanlari haqida bilishadi hamda zararkunandalar va kasalliklarga qarshi kurashning odamlar va atrof-muhitga zararni kamaytiradigan mahalliy usullarini tushuntirishlari mumkin.

3.1.3

[KFX - O'FX] Sog'lom hosil yetishtirishga yordam beradigan, zararkunandalar populyatsiyasi va kasalliklarining to'planishining oldini oladigan, foydali organizmlar populyatsiyasini asraydigan va yaxshilaydigan usullar qo'llaniladi.

3.1.4

[KFX - O'FX] ZIB rejasining bir qismi sifatida mahalliy yaroqlilik va zararkunandalarga chidamlilik hisobga olingan holda mos urug'lik navlariga ustunlik beriladi..

3.1.5

[KFX - O'FX] Hosilning sog'lig'i hamda zararkunandalar va foydalarning darajasi bo'yicha muntazam monitoring o'tkaziladi; zararkunandalar qachon va qanday nazorat qilinishini aniqlash uchun joylarda kuzatuv va qaror qabu qilish vositalari ishlatiladi.

3.1.6

[KFX - O'FX] Zararkunandalarga qarshi kurash sifatida biologik, fizik, madaniy va boshqa kimyoviy bo'lmagan usullar ustunlik qiladi.

3.1.7

[KFX - O'FX] Pestitsidlar faqat ma'lum bir zararkunanda darajasiga kelinganida qo'llaniladi. Agar pestitsidlar ishlatilsa:

- (i) kam toksik faol moddalar afzal ko'riladi;
- (ii) qarshilikni kamaytiradigan tarzda qo'llaniladi.

3.1.8

[KATFX] Zararkunandalarga qarshi integratsiyalashgan strategiya amalga oshiriladi, u quyidagi xususiyatlarga ega:

- (i) zararkunandalar populyatsiyasi va kasalliklar to'planishining oldini oladi va foydali organizmlarni himoya qiladi;
- (ii) mahsulot salomatligi, zararkunandalar, kasalliklar va foydali organizmlarning muntazam monitoringini o'z ichiga oladi;

- (iii) kimyoviy bo'lmagan aralashuvlarga ustunlik beradi;
- (iv) kimyoviy moddalar faqatgina belgilangan chegaralarga kelinganida ishlatilishini ta'minlaydi;
- (v) kam toksik faol moddalarga ustunlik beradi va kimyoviy moddalar ishlatilsa, qarshilikni boshqaradi.

3.2-MEZON - Ishlatilgan pestitsidlar tegishli tarzda qayd etiladi va tegishli ravishda belgi qo'yiladi.

3.2.1

[KFX - O'FX - KATFX] Ishlatiladigan barcha pestitsidlar paxtada foydalanish uchun milliy ro'yxatga olingan.

Eslatma: joriy Tamoyil va Mezonlarda bo'lgani kabi bu ko'rsatkich ham pestitsid aralashmalari yoki "kokteyllar"dan foydalanishning oldini olishga qaratilgan - bu kelgusi versiyalarda matnda aniqlashtiriladi.

3.2.2

[KFX - O'FX - KATFX] Ishlatiladigan barcha pestitsidlar kamida bitta haqiqiy yoki amaldagi rasmiy yoki amaldagi rasmiy mintaqaviy tilda to'g'ri markirovkalangan.

3.2.3

[KFX - O'FX - KATFX] Ishlab chiqaruvchi tomonidan ishlatiladigan barcha tabiiy moddalarning qaydi olib boriladi va yiliga kamida bir marta yangilanadi.

3.3-MEZON - Ishlab chiqaruvchi Juda xavfli pestitsidlardan foydalanishni minimallashtirishni zimmasiga oladi.

3.3.1

[KFX - O'FX - KATFX] Agar pestitsidlar quyidagi xalqaro hujjatlar yoki qoidalarga kiritilgan bo'lsa, ishlatilmaydi:

- (i) Stokgolm konvensiyasining A va B ilovalari;
- (ii) Monreal protokoliga ilovalar;
- (iii) Rotterdam konvensiyasining III ilovasi;
- (iv) Kimyoviy moddalarni tasniflash va markirovkalashning global muvofiqlik tizimi (GHS) Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) tasnifining 1-toifasiga kiritilgan.

3.3.2

[KFX - O'FX - KATFX] Taqiqlangan pestitsidlar (3.3.1 ga muvofiq) hali qo'llash mumkin bo'lgan muqobil variantlarga ega bo'lmasa, Better Cotton tomonidan belgilangan istisnoli foydalanish vaqtiga ko'ra istisno foydalanish jarayoni bilan ruxsat berilishi mumkin. Agar pestitsidlar istisno foydalanish jarayoni tomonidan tasdiqlanganidan keyin ishlatilsa, bu borada ko'rsatilgan shartlarga qat'iy rioya qilish va bular haqida hisobot tayyorlanishi kerak..

3.3.3

[KFX - O'FX - KATFX] Ishlab chiqaruvchi 2024-yilgacha Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) tasnifining lbi hisoblangan (iv) Kimyoviy moddalarni tasniflash va markirovkalashning global muvofiqlik tizimi (GHS) 2-toifasida sanab o'tilgan pestitsidlardan foydalanishni bosqichma-bosqich to'xtatadi.

Eslatma: ushbu pestitsidlar Tamoyil va Mezonlar 2024-2025 yillar mavsumida kuchga kirgungacha taqiqlanadi.

3.3.4

[KFX - O'FX - KATFX] Kimyoviy moddalarni tasniflash va markirovkalashning global muvofiqlik tizimining (GHS) Ia va Ib toifalariga muvofiq kanserogen, mutagen yoki reprotoksik (CMR) moddalar sifatida belgilangan pestitsidlardan foydalanishni bosqichma-bosqich to'xtatish rejasi ishlab chiqilmoqda.

3.4-MEZON - Juda xavfli pestitsidlarning ekologik xavfi baholanadi va kamaytiriladi.

3.4.1

[KFX - O'FX - KATFX] 3.3.1-3.3.3 doirasida bo'lmagan, atrof-muhit uchun xavfli bo'lgan keng ishlatiladigan pestitsidlar uchun Better Cotton Yo'riqnomasi hujjatiga muvofiq xavfni kamaytirish yondashuvi qo'llaniladi..

3.5-MEZON - Pestitsidlar xavfsiz tarzda qo'llaniladi va saqlanadi.

3.5.1

[KFX - O'FX - KATFX] Pestitsidlarni tayyorlaydigan va qo'llaydigan har qanday shaxs quyidagi xususiyatlarga ega ekanligiga ishonch hosil qilish kerak:

- (i) sog'lom bo'lishi kerak;
- (ii) pestitsidlarni qo'llash bo'yicha malakali va o'qitilgan bo'lishi kerak;
- (iii) 18 yosh va undan katta bo'lishi kera;
- (iv) homilador yoki emizikli ona bo'lmasligi kerak.

3.5.2

[O'FX - KATFX] Pestitsidlar tegishli shaxsiy himoya vositalaridan to'g'ri foydalanadigan odamlar tomonidan tayyorlanadi va qo'llaniladi.

3.5.3

[KFX] Pestitsidlarni tayyorlash va qo'llashda tananing quyidagi qismlarini teri orqali so'rilish, yutish va nafas olish yo'li bilan himoyalashni o'z ichiga olgan Minimal shaxsiy himoya vositalari kiyiladi:

- (i) yuz va nafas olish yo'llari: ko'zlar, quloq kanallari, burun, bosh terisi;
- (ii) oyoq-qo'llar: qo'llar, bilaklar, kaftlar, boldirlar, oyoqlar;
- (iii) qorin va jinsiy a'zolar.

3.5.4

[KFX] Tegishli shaxsiy himoya vositalarini qabul qiluvchi fermerlar sonini ko'paytirish choralari ko'rildi.

3.5.5

[O'FX - KATFX] Fermer xo'jaligida pestitsidlarni saqlash, aralashtirish va ishlov berish hamda pestitsid idishlari va qo'llash uskunalarini tozalash uchun ajratilgan joylar bo'lishi kerak. Maydonlar pestitsidlarni saqlash bo'yicha tegishli qonun hujjatlariga to'liq mos kelishi kerak. Bu joylarda barcha chayishlar va oqavalar ifloslanish xavfi bo'lmaydigan shaklda to'liq ushlanishi kerak.

3.5.6

[KATFX] Ishlab chiqaruvchilar;

- (i) pestitsid konteynerlarini konteyner turi, hajmi va faol moddalariga qarab to'g'ri yo'q qilishi zarur;
- (ii) qayta ishlash dasturlarida ishtirok etish va/yoki tegishli imkoniyatlar mavjud bo'lganda yetkazib beruvchiga qaytarish.

3.5.7

[KFX] Fermerlar to'g'ri va xavfsizroq purkash usullarini bilishadi va qabul qilishadi..

3.5.8

[O'FX - BÖ] Pestitsidlarni qo'llash quyidagi ta'sirlarni ta'minlash orqali salbiy ta'sirlarni kamaytiradi:

- (i) yorliq talablari bajariladi;
- (ii) tegishli qo'llash uskunasi to'g'ri ishlatiladi va kalibrlanadi;
- (iii) tegishli ob-havo sharoitlari hisobga olinadi;
- (iv) kontaminatsiya (masalan, purkashda) minimallashtiriladi.

3.5.9

[O'FX - KATFX] Pestitsidlar qo'llanilgandan so'ng cheklangan kirish oraliqlari aniqlanadi va qo'llaniladi..

4-tamoyil: O'g'it sifati

4.1-MEZON - Fermerlik amaliyotlari (hosildan oldin, keyin va hosil paytida) o'g'it sifatini saqlab qolish va mustahkamlashni ta'minlaydi.

4.1.1

[KFX - O'FX - KATFX] Yuqori sifatli o'g'itlar ishlab chiqarish ehtimolini oshirish uchun urug' tanlash (imkoniyat bo'lsa), ekish sanasi, ekish nisbati, qator oraliqlari, ekinlarning o'sishi va begona o'tlarga qarshi kurash bo'yicha mahalliy tegishli ilg'or tajribalar qo'llaniladi.

4.1.2

[KFX - O'FX - KATFX] Kontaminatsiyaning oldini olish uchun tegishli yaxshi yig'ish, saqlash va tashish amaliyotlari mahalliy darajada amalga oshiriladi.

4.1.3

[KFX] Polipropilen, polietilen yoki boshqa sintetik qoplardan foydalanilganda, muqobil variantlar qo'llab-quvvatlanadi va vaqt o'tishi bilan sintetik materiallarni bosqichma-bosqich voz kechish choralarini ko'riladi.

5-tamoyil: Insonga munosib ish

5.1-MEZON - Ishlab chiqaruvchida ishchilar huquqlarining buzilishi xavfi hamda hodisalarni aniqlash va ularga qarshi kurashishning samarali tizimi mavjud.

5.1.1

[KFX - O'FX - KATFX (faqatgina 15 dan ortiq ishchiga ega KATFXlar uchun*)]
Ishchilar huquqlarining buzilishi xavfi va hodisalarini (jumladan, majburiy mehnat va bolalar mehnati xavfi, kamsitish, ish joyidagi zo'ravonlik va shilqimlik, sog'liq va xavfsizlik muammolari) muntazam ravishda monitoring qilish tizimi mavjud.

Monitoring tizimi uchun mas'ul shaxs(lar) aniq belgilangan.

5.1.2

[KFX - O'FX - KATFX (faqatgina 15 dan ortiq ishchiga ega KATFXlar uchun*)] Xatarlar va hodisalar aniqlangan taqdirda, ushbu xavf va hodisalarni bartaraf etish va ular takrorlanishining oldini olish uchun tezkor choralar ko'riladi.

5.1.3

[O'FX - KATFX] Agar ishchilar subpudratchi orqali ishlatilgan bo'lsa, fermerlar 5.2 - 5.10 Mezonlari doirasidagi talablarni subpudratchilarga yetkazish va ishchilarning ushbu talablarga javob berishlarini ta'minlash uchun javobgarlikni o'z zimmalariga oladilar.

5.2-MEZON - Fermerlar va ishchilar o'z mehnat huquqlaridan xabardor.

5.2.1

[KFX - O'FX - KATFX] Ayol va erkak fermerlar hamda ishchilar mehnatdagi asosiy tamoyillar va huquqlardan xabardor. Bularga uyushish erkinligi va mehnat muzokaralari erkinligi, xavfsiz va sog'lom mehnat muhitiga bo'lgan huquqlar hamda kamsitish, ish joyidagi zo'ravonlik va shilqimlik, majburiy mehnat va bolalar mehnatidan himoyalaniş kiradi.

5.3-MEZON - Bolalar va yosh ishchilarning huquqlari himoya qilinadi.

5.3.1

[KFX - O'FX - KATFX] 18 yoshga to'lmagan hech kim xavfli ishlarni bajarishi mumkin emas, ya'ni xususiyati yoki bajarilish shartlariga ko'ra 18 yoshga to'lmagan shaxslarning sog'lig'i, xavfsizligi yoki axloqiga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan ishlar berilmaydi.

5.3.2

[KFX - O'FX - KATFX] Yosh ishchilar (minimal bandlik yoshidan 18 yoshgacha bo'lganlar) tegishli tayyorgarlik va nazoratdan o'tadilar hamda yoshga mos keladigan, xavfli bo'lmagan ishlarni bajaradilar.

5.3.3

[O'FX - KATFX] Ishchilarning yoshi 15 dan (ba'zi mamlakatlarda 14) yoki mahalliy qonunchilikda belgilangan minimal bandlik yoshidan past bo'lgan xodimlar yo'qligiga ishonch hosil qilish uchun tekshiriladi.

5.3.4

[KFX - O'FX - KATFX] Kamida 13 yoshga to'lgan bolalar (ba'z mamlakatlarda 12) faqat quyidagi shartlar bilan yengil ishlarni bajarishlari mumkin:

- (i) ish xavfli emas va bolalarning sog'lig'i yoki rivojlanishiga zarar yetkazmaydi;
- (ii) ish ularning maktabga borishiga ta'sir qilmaydi va maktabdan keyin yoki ta'til paytida (haftasiga maksimal 14 soat) oqilona vaqt ichida bajariladi;
- (iii) ish bolaning yoshi va jismoniy holatiga mos keladi hamda bolaning ijtimoiy, axloqiy va jismoniy rivojlanishiga xavf tug'dirmaydi.

5.4-MEZON - Majburiy mehnat, jumladan, qarz majburiyatlari ostida ishlatish yoki odam savdosi mavjud emas.

5.4.1

[KFX - O'FX - KATFX] Ishchilar ish boshlanishidan oldin (og'zaki yoki yozma kelishuvlar orqali) mehnat shartlari va sharoitlarini tushunadilar va erkin qabul qiladilar; ishchilar mehnat sharoitlari yoki xususiyatidagi o'zgarishlarni qabul qiladilar.

5.4.2

[KFX - O'FX - KATFX] Ish beruvchi yoki boshqa uchinchi shaxslar tomonidan ishga yollash uchun to'lovlar yoki tegishli xarajatlar ishchilardan bevosita yoki bilvosita (masalan, ish haqi va yordamlardan ushlab qolinish yo'li bilan) undirilmaydi..

5.4.3

[KFX - O'FX - KATFX] Ishchilar ishga olinishdan boshlab butun ish sikli davomida zo'ravonlik va shilqimlik bo'lmagan ish joyiga ega bo'lish huquqiga ega.

5.4.4

[KFX - O'FX - KATFX] Ishchilar ishga qabul qilingandan to'ishdan bo'shatilgunga qadar butun ish davrining istalgan nuqtasida tahdid yoki jarima tahdidiga (masalan, ish haqi yoki hujjatlar uchun to'lov ushlab qolish) duch kelmaydilar.

5.4.5

[KFX - O'FX - KATFX] Ishchilar uchinchi tomonga yoki ish beruvchiga qarz majburiyatlarini bajarish sharti sifatida bir ishga bog'lanmaydi.

5.5-MEZON - Ishchilar uyushish va mehnat muzokaralari o'tkazish huquqiga ega.

5.5.1

[KFX - O'FX - KATFX] Barcha ishchilar ishchilar tashkilotini tuzish yoki unga qo'shilish hamda mehnat shartlari va sharoitlari bo'yicha jamoaviy muzokaralar olib borish huquqidan xabardor qilinadi (ish beruvchining aralashuvisiz yoki tahdidisiz).

5.6-MEZON - Ishchilarni yollash yoki ularga munosabatda bo'lishda hech qanday kamsitish yo'q.

5.6.1

[KFX - O'FX - KATFX] Ish amaliyotida, shu jumladan ish haqi, muomala yoki yordamlardan foydalanishda hech qanday kamsitish yo'q.

5.7-MEZON - Ishchilarga kamida eng kam ish haqi miqdorida haq to'lanadi.

5.7.1

[KFX - O'FX - KATFX] Ishchilarga eng kam ish haqi yoki undan yuqori haq to'lanadi (qishloq xo'jaligiga qo'llaniladigan qonuniy milliy yoki mintaqaviy eng kam ish haqi yoki jamoaviy kelishilgan ish haqini bildiradi).

5.7.2

[KFX - O'FX - KATFX] Ishchilarga hech bo'lmaganda amaldagi eng kam ish haqi yoki mintaqaviy norma (qaysi biri yuqoriroq bo'lsa) olish uchun yetarli ish haqi yoki ish haqlari normal ish vaqtida va normal ish sharoitida taqdim etiladi.

5.8-MEZON - Ishchilarning salomatligi va xavfsizligi himoyalangan.

5.8.1

[O'FX - KATFX] Erkak va ayol ishchilar kerak bo'lganda qurilish maydonchasiga yaqin masofada hojatxonalar va qo'l yuvish vositalaridan foydalanishlari mumkin. Hojatxonalarda xavfsizlik va maxfiylik ta'minlanadi.

5.8.2

[KFX] Har yili ishchilarning hojatxonalar va qo'l yuvish vositalaridan foydalanish imkoniyatini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

- (i) obyektlar qurilish maydonchasidan oqilona masofada bo'lishi va kerak bo'lganda barcha ishchilar bora oladigan bo'lishi kerak;
- (ii) Hojatxonalarda xavfsizlik va maxfiylikni ta'minlanishi kerak.

Ishlab chiqaruvchi bo'linma fermer xo'jaliklaridagi hojatxonalar va qo'l yuvish vositalaridan foydalanishni har yili kamida bir marta tekshirishi kerak.

5.8.3

[KFX - O'FX - KATFX] Ishchilar soya va ichimlik suvi bo'lgan muntazam va majburiy dam olish tanaffuslariga ega, issiqlik stressining oldini olish va ishchilarda issiqlik stressining har qanday belgilarini tezda bartaraf etish chorolari ko'rilgan.

5.8.4

[KFX - O'FX - KATFX] Mehnat va vazifa bilan bog'liq ehtimoliy sog'liq va xavfsizlik tahlikalari aniqlanadi va ularga qarshi choralar ko'riladi.

5.8.5

[O'FX - KATFX] Ishchilar, fermerlar hamda ishchilarni boshqaradigan barcha shaxslar o'zlarining roli bilan bog'liq asosiy sog'liq va xavfsizlik tahlikalari hamda ish kuni davomida o'zlari va/yoki mas'uliyatlari ostidagi shaxslar uchun bu tahlikalarni qanday kamaytirish bo'yicha treningda qatnashadilar va ma'lumot oladilar.

5.9-MEZON - Ishchilar o'z tashvishlarini ishonch bilan aytishlari va mehnat qonunbuzarliklari qurbonlari zarur choralardan foydalana olishlari mumkin.

5.9.1

[O'FX - KATFX] Ishchilar jumladan bolalar mehnati yoki majburiy mehnat, kamsitish, ish joyidagi zo'ravonlik va shilqimlik, sifatsiz mehnat sharoitlari yoki yomon niyat bilan ishga yollash amaliyoti kabi xodimlarning huquqlari buzilishiga oid xavotirlarni bildirish uchun xavfsiz kanallarga ega va ularni ko'rib chiqqan. Ushbu mexanizmlar quyidagilar bo'lishi kerak:

- (i) mavjud, ishonchli shikoyat mexanizmlari yoki ular mavjud bo'lgan boshqa tizimlardan foydalanish;
- (ii) barcha ishchilar foydalana oladigan bo'lishi kerak.

5.9.2

[O'FX - KATFX] Ishchilarning huquqlari buzilgan hollarda, jumladan, bolalar mehnati yoki majburiy mehnat, kamsitish, ish joyidagi zo'ravonlik va shilqimlik, sifatsiz mehnat sharoitlari yoki yomon niyat bilan yollash amaliyotlari sodir bo'lgan hollarda jabrlanuvchilarni himoyalash va reabilitatsiya qilish imkoniyatlari mavjud. Jabrlanuvchilarning shaxsiy hayoti va xavfsizligi butun jarayon davomida himoyalangan.

5.9.3

[KATFX] Ishchilar xavfsiz ishonch telefoni yoki boshqa shikoyat mexanizmidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lsa, ishchilarning huquqlari buzilishidan aziyat chekkan har bir kishi yordam va yechimlardan foydalanishi mumkin..

5.10-MEZON - Ishchilar aniq shartnomalar va kutilmalarga ega.

5.10.1

[O'FX - KATFX] Ishchi va ish beruvchi tomonidan imzolangan yozma shartnomalar barcha ishchilar uchun (doimiy, mavsumiy yoki vaqtinchalik) amal qiladi. Ishchilar shartnomani imzolaganidan keyin uning nusxasini oladilar.

6-tamoyil: Tirikchilik manbalari

6.1-MEZON - Fermerlarning asosiy tirikchilik masalalari va ularni hal etish imkoniyatlari aniqlanib, amalga oshirilmoqda.

6.1.1

[O'FX - KATFX] Ishlab chiqarish bo'linmasi boshlig'i va soha xodimlari asosiy tirikchilik muammolarini baholash va yaxshilash imkoniyatlarini aniqlash uchun fermer xo'jaliklari (shu jumladan barcha oila a'zolari) va boshqa tegishli manfaatdor tomonlar bilan maslahatlashadilar va muloqot qiladilar.

6.1.2

[O'FX - KATFX] 6.1.1 ga asoslanib, vaqt o'tishi bilan tirikchilik manbalari uchun mo'ljallangan maqsadli yo'nalishlarga nisbatan yaxshilanishlarni ta'minlaydigan muayyan faoliyatlar yoki aralashuvlar amalga oshiriladi.

6.2-MEZON - Tashkil etish va birgalikdagi harakatlar orqali ijtimoiy va iqtisodiy foydalarni ko'paytirish.

6.2.1

[KATFX] Ehtiyoj va talablardan tashqari mahalliy imkoniyatlar mavjud bo'lganida, ishlab chiqaruvchi fermerlarning ijtimoiy va/yoki iqtisodiy manfaatlarni oshirish uchun guruhlariga bo'linishini qo'llab-quvvatlaydi. Bularga quyidagilar kiradi:

- (i) resurslar va bozorlardan yaxshiroq foydalanish;
- (ii) axborotdan yaxshiroq foydalanish;
- (iii) faol ishtirok va jamoaviy ovoz.